YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL, OKTYABR / VI MAXSUS SON

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

IQTISODIYOT FAKULTETI



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Karimov Norboy G‘aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay’ati:
Salimov Oqil Umrzoqovich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G‘afforovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko‘nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O‘z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
Ochilov Farkhod, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig‘i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li, TDIU katta o‘qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Elektron nashr. 307 sahifa.
E’lon qilishga 2026-yil 24-oktyabrda ruxsat etildi.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:
Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po‘latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
G‘afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o‘qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

MUNDARIJA

INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH: YUTUQLAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR 9
Yunusov Xudoynazar Beknazarovich

XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA IJARA MUNOSABATLARI VA INVESTITSION AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH 11
Egamberdiyeva Salima Rayimovna

KORXONA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA‘MINLASH VA RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH FOYDA KO‘RSATKICHLARINI 2029-YILGACHA PROGNOZI 20
Xasanov Baxodir Akramovich, Maxmudov Azamat Normuradovich, Atamurodov Saidmurod Yaxyoyevich

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O‘TISH MASALALARI 23
Kurbanov Ziyat Niyazovich

ОРГАНИЗАЦИЯ НАЛОГОВОГО УЧЕТА И ОПТИМИЗАЦИЯ ЗАТРАТ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЛОГИСТИКИ 28
Н. Бердимурат, А. Бердимурат

QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA BIOLOGIK AKTIVLAR AUDITINI RISKLARGA YO‘NALTIRILGAN HOLDA TASHKIL ETISH 34
Alikulov Abdimo‘min Ismatovich, Ruzieva Elvira Abdulmitovna, Rakhimova Umida Rabbimovna

CHORVACHILIK KORXONALARI VA AGROKLASTERLARDA BIOLOGIK AKTIVLAR HISOBINI BHXS (IAS) 41 “QISHLOQ XO‘JALIGI” STANDARTI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 40
Alikulov A.I., Sayfiyev S. S., Karimov I.Sh.

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARINING IQTISODIY MOHIYATI, ULARNI TASNIFLASH VA BAHOLASHNING ZARURATI 47
Xasanov Baxodir Akramovich, Maxmudov Azamat Normuradovich, Atamurodov Saidmurod Yaxyoyevich

BALIQCHILIK XO‘JALIKLARIDA AYLANMA KAPITALDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI IQTISODIY TAHLIL QILISH VA BARQAROR RIVOJLANISHNI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 50
Fayziyev Oybek Raximovich

CHORVACHILIK BIOLOGIK AKTIVLARI HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI 57
Menglikulov Baxtiyor Yusupovich

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AGROSERVISNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI 63
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich

QISHLOQ AHOLISI DAROMADLARINI KO‘PAYTIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI 68
Amaniyazov Rinat Bayniyazovich

MINTAQAVIY BOG‘DORCHILIKDA RESURS VA XARAJATLAR TARKIBINI OPTIMALLASHTIRISH (Samarqand viloyati tumanlari misolida) 74
Akbarov Husan O‘zbekxonovich

SANOAT SOHASIDA INVESTITSION RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI 79
Azimova Hulkar Egamberdiyevna

QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQARISHINING TEXNOLOGIK VA BIOLOGIK XUSUSIYATLARI HAMDA ULARNING XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYA METODOLOGIYASIGA TA’SIRI 86
Mardonov Mamed Shavkatovich

BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA INVESTITSIYALAR HAMDA JOZIBADOR INVESTITSION MUHITNING O‘RNI VA AHAMIYATI 89
Raxmatov Jonibek Ismoil o‘g‘li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

SAMARQAND VILOYATIDA MAISHIY XIZMATLARNI RIVOJANTIRISH ASOSIDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHGA OID TAVSIYALAR 96
Navruzbek Azimjonovich Rajabov

MAMLAKATIMIZDA AHOLINI KAMBAG‘ALLIK DARAJASINING TAHLILI VA KAMBAG‘ALLIKNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY IMKONIYATLARI 99
Saparov Murod Irgashovich

O‘ZBEKISTONDA SAVDO VA ELEKTRON SAVDO XIZMATLARI TARAQQIYOTINING ILMIY ASOSLARI VA RAQAMLI IQTISODIYOTGA MOS RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI 102
Jurakulov Shoxrux Baxtiyorovich

O‘ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOG‘INING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI 108
Eshanqulov Sirojiddin Xakimovich

INNOVATSION AGROTEXNIK TADBIRLAR (XOMTOK VA BARG SONINI BOSHQARISH) ASOSIDA MAYIZBOP UZUMCHILIKDA BARQAROR HOSILDORLIKNI TA’MINLASH YO‘LLARI 114
Abdurasulov Otabek Abdurasul o‘g‘li, Mahmudova Fotima Erkin qizi

ASALARICHILIK XO‘JALIKLARIDA AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 117
Ishturdiev Hasan Abdugapparovich

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ЗАТРАТ БИОЛОГИЧЕСКОВ АКТИВОВ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ 121
Изатиллаева Комила, Эшмурадов Улугбек Ташмуратович

AGROKLASTERLARDA TOVAR-MODDIY QIYMATLIKLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING USLUBIY YO‘NALISHLARI 128
Raximova Umida Rabbimovna, Vahobov Diyor Husan o‘g‘li, Mardonova Parizoda Ziyodullayevna, Djuraqulov Sherali Abdullayevich

O‘ZBEKISTON KIMYO SANOATI KORXONALARI DIVERSIFIKATSIYALASHUVI ASOSLARI 133
Razikov Otabek Rustamovich

QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALARNING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH 137
Raximova Umida Rabbimovna, Qodirberganova Tabassum Ro‘zimboy qizi, Xazratqulov Firdavs Firuzovich, Qadamboyev Mirxandbek Xamidjon o‘g‘li

LIMON MEVASINING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI HAQIDA BA’ZI TUZUKLAR 140
N.Mamatkulov, Ochilova Marg‘uba

KICHIK BIZNESNI EKSPORTGA OLIB CHIQISH: AMALIY STRATEGIYALAR VA HAYOTIY TAJRIBALAR 143
R. T. Qudratov, A. X. Sodiqov

FERMER XO‘JALIKLARIDA SOTISH JARAYONLARI HISOBI VA AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH 147
Ruziyeva Dilafruz Faxridinovna, Abdunazarova Sevinch

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TURISTIK XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR 154
Tleumuratov Baxadir Genjemuratovich

XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA BIZNES-JARAYONLARNI AVTOMATLASHTIRISH VA OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI 159
Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich

G‘ALLA YETISHTIRISHDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBI VA MAHSULOT TANNARXINI HISOBLASHNING HOZIRGI HOLATI 165
Sh.X. Yuldashev, S.S. Nematilloyev

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 171
Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich

YASHIL IQTISODIYOT SHAROTIDA OZBEKISTONDA ISHSIZLARGA YANGI ISH ORINLARINI YARATISH 177
Nazarova M.Sh., Berdikulov Ravshan, Nematullaev Ozodbek, Xasanov Rizo

ПОВЫШЕНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА НА ОСНОВЕ ИНВЕСТИЦИЙ, ИННОВАЦИЙ И ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 181
Шадиева Гулнора Мардиевна

KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI QISQARISHIGA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI TA’SIRINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI 185
Saparov Murod Irgashovich

SUT CHORVACHILIGIDA MAHSULOT TANNARXINI OMILLI VA MARJINAL TAHLIL QILISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH 189
Abduganieva Dildora Bobir qizi, Alikulov Abdimo‘min Ismatovich

ASALARICHILIK XO‘JALIKLARIDA TA’MINOT JARAYONI HISOBINING HOZIRGI HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 195
Ishturdiev Xasan Abdigapparovich

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI 200
Ochilova Mohigul Toshtemir qizi

ПИЩЕВЫЕ ОТХОДЫ И СТРАТЕГИИ БОРЬБЫ С НИМИ 214
Казакова Зулайхо Салахиддиновна, Хотамова Юлдуз Юнусжоновна, Авалбаева Самира Кахрамон кизи, Ахророва Малохат Аброр кизи

AGROKLASTERLARDA TOVAR-MODDIY QIYMATLIKLAR BO‘YICHA ICHKI NAZORAT VA AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH 221
Raximova Umida Rabbimovna, Jumaniyazova Munisa Jamoliddin qizi, Xoliqberdiyev Firdavs Ilhamovich, Nafasov Og‘abek Bobirjon o‘g‘li

KORXONALARDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALARI TANNARXINI IAS 2 STANDARTI BO‘YICHA SHAKLLANTIRISH VA UNING AUDITORLIK TAHLILI 225
To‘xtayev Zafar Mamatqulovich, Omonov Sindorbek G‘ayrat o‘g‘li, Abdusalomov Jasurbek Abdukarim o‘g‘li

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ASOSIY VOSITALARNI TAN OLISH, ULARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA BAHOLASH VA AMORTIZATSIYA USULLARI: XALQARO VA O‘ZBEKISTON YONDASHUVLARINING QIYOSIY TAHLILI 229
Azzamova Dinora Xolmumin qizi

O‘ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI XALQARO STANDARTLARGA UYG‘UNLASHTIRISH SHAROITIDA XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH 232
X. Axmedov, S. Karimov, M. Raxmonova, G. B. Narziyeva

СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ БИЗНЕСА 237
Р. С. Макашева, А. Бердимурат, Азизова София, Акимова Милан

ИНВЕСТИЦИИ, ИННОВАЦИИ И РЕБРЕНДИНГ КАК ФАКТОРЫ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА 242
Шадиева Гулнора Мардиевна

SAMARQAND VILOYATI MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG‘IDA KLASTER TIZIMINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA UNI OSHIRISH YO‘LLARI 246
Roziyeva Gulhayo Choriyevna

PAXTA YETISHTIRISHDA INNOVATSION AGROTEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI 254
Z.N.Ishniyazov

O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 257
G. B. Narziyeva, Baxriddinov Samandar, Jumayev Azamat

O‘ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A’ZO BO‘LISHI VA MILLIY IQTISODIY ISLOHOTLAR: IMKONIYATLAR, XATARLAR VA STRATEGIK MOSLASHUV 262
Kazakova Zulayho Salaxiddinovna, Yaxshiliqov Jo‘raqul Rahmiddin o‘g‘li, Napasov Aslonbek Asqar o‘g‘li

QISHLOQ XO‘JALIGIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA BARQAROR RIVOJLANISHGA TA’SIRI 267
Ruziyeva Dilafruz Faxridinovna, Tursunov Samad Dilshod o‘g‘li, Tog‘aymurodov Sorbon Suhrob o‘g‘li, Eshqulov Murodjon O‘tamurod o‘g‘li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

FAOL TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMINING ASOSLARI 274
Baxtiyorov Mexro‘zxon Baxtiyorovich, Salamov Ibroxim

УЧЕТ И ОПТИМИЗАЦИЯ ТРАНСПОРТНЫХ ЗАТРАТ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЛОГИСТИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ 279
Бердимурат Н., Сапарбай А., Қырықбай Қ.

СИСТЕМА НАЛОГОВ И СБОРОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ И ВЕКТОР РАЗВИТИЯ 286
Бахтиярова Севинчой Абдиязовна, Султонбоева Севинчой Азизбековна

AKVAKULTURA: TABIIY-IQLIM SHAROITLAR, BALIQ YETISHTIRISH USULLARI VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI 289
Urdushev Xamrakul, Rabbimova Parvina Askar qizi

БИОЛОГИЧЕСКИЕ АКТИВЫ КАК СПЕЦИФИЧЕСКИЙ ОБЪЕКТ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА 293
Кураленко Алина, Эшмурадов У.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В МАЛОМ И СРЕДНЕМ БИЗНЕСЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 298
Туякбаева Жазира, Таженова Хурлиман, Ш. Юлдашев

QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA JAVOBGARLIK MARKAZLARI SEGMENTAR HISOBOTLARINING XUSUSIYATLARI 301
Alikulov G‘olib Abdimuminovich

UO'K: 338.43:634.1

MINTAQAVIY BOG'DORCHILIKDA RESURS VA XARAJATLAR TARKIBINI OPTIMALLASHTIRISH (SAMARQAND VILOYATI TUMANLARI MISOLIDA)

Akbarov Husan O'zbekxonovich
Oriental universiteti Samarqand kampusi
Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent
E-mail: akbarovhusan@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Samarqand viloyatining 14 ta tumani misolida bog'dorchilik mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini baholash muammosi iqtisodiy-matematik modellashtirish, xususan "Ma'lumotlar muhiti tahlili" (Data Envelopment Analysis - DEA) usulining CCR modeli asosida o'rganilgan. Hisob-kitoblar natijasida 14 tumandan 9 tasi samarali, 5 tasi samarasiz deb topildi, samaradorlik ko'rsatkichining o'rtacha qiymati 0,9776 ni tashkil etdi. Samarasiz tumanlar uchun mos yozuvlar tumanlar va ularning tortish koeffitsientlari, shuningdek har bir xarajat moddasi bo'yicha tavsiya etilgan optimal qiymatlar aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bog'dorchilik, iqtisodiy samaradorlik, ma'lumotlar muhiti tahlili (DEA), CCR modeli, ishlab chiqarish chegarasi, resurslardan foydalanish.

Abstract: This article examines the problem of assessing the efficiency of horticultural production in 14 districts of the Samarkand region based on economic-mathematical modeling, specifically the CCR model of Data Envelopment Analysis (DEA). Eight cost items were used as input indicators (labor costs, mineral fertilizers, pest control, mechanization services, fuel and lubricants, irrigation service costs, electricity, and other expenses), while gross yield and profit were used as output indicators. The calculations revealed that 9 out of 14 districts were efficient, while 5 were inefficient, with an average efficiency score of 0.9776. For the inefficient districts, reference (peer) districts and their weighting coefficients, as well as recommended optimal values for each cost item, were identified. Based on the findings, practical proposals for improving resource-use efficiency were developed.

Key words: horticulture, economic efficiency, Data Envelopment Analysis (DEA), CCR model, production frontier, resource utilization.

Аннотация: В данной статье на примере 14 районов Самаркандской области изучена проблема оценки эффективности производства продукции садоводства на основе экономико-математического моделирования, в частности, модели CCR метода «Метод оболочки данных» (Data Envelopment Analysis - DEA). В результате расчётов из 14 районов 9 были признаны эффективными, а 5 - неэффективными, при этом среднее значение показателя эффективности составило 0,9776. Для неэффективных районов были определены референтные районы, их весовые коэффициенты, а также рекомендуемые оптимальные значения по каждой статье затрат. На основе результатов исследования разработаны практические предложения по повышению эффективности использования ресурсов.

Ключевые слова: садоводство, экономическая эффективность, метод оболочки данных (DEA), CCR-модель, производственная граница, использование ресурсов.

KIRISH

Respublika qishloq xo'jaligida bog'dorchilik tarmog'i doimo ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib kelgan va bugungi kunda ham mamlakat eksport salohiyatini oshirish, aholi bandligini ta'minlash hamda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Xususan, Samarqand viloyati o'zining qulay tuproq-iqlim

sharoitlari tufayli respublikada meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirishning yirik hududlaridan biri hisoblanadi. Biroq so‘nggi yillarda bog‘dorchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining barqaror o‘sishiga qaramay, tuman va xo‘jaliklar kesimida resurslardan foydalanish samaradorligi bir xil darajada emasligi kuzatilmoqda. Bu esa mavjud ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish va bog‘dorchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Zamonaviy iqtisodiy tahlilda tarmoq yoki hudud faoliyati samaradorligini baholashning turli usullari mavjud bo‘lib, ularning ichida “Ma’lumotlar muhiti tahlili” (Data Envelopment Analysis — DEA) usuli alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu usul bir nechta kirish va chiqish ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan bir turdagi qaror qabul qiluvchi birliklarning nisbiy samaradorligini aniqlash imkonini beradi. DEA usulining afzalligi shundaki, u ishlab chiqarish funksiyasining oldindan berilgan aniq shaklini talab qilmaydi va chiziqli dasturlash masalasi asosida empirik samaradorlik chegarasini shakllantiradi.

Mazkur maqolada Samarqand viloyatining 14 ta tumani misolida bog‘dorchilik mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligi DEA usulining CCR (Charnes-Cooper-Rhodes) modeli yordamida baholandi. Tadqiqotda ko‘zlangan maqsad tumanlar kesimida bog‘dorchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash, samarasiz tumanlarni ajratib ko‘rsatish va ularning ko‘rsatkichlarini yaxshilash bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ishlab chiqarish samaradorligini baholash muammosi iqtisodiy fanning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu boradagi ilmiy tadqiqotlar XX asrning o‘rtalaridan boshlab faol rivojlana boshladi. M. Farrell 1957-yilda e’lon qilgan asarida ishlab chiqarish samaradorligini baholashning nazariy asoslarini ishlab chiqdi va texnik samaradorlik tushunchasini iqtisodiy tahlilga kiritdi [1]. Farrell g‘oyalarini rivojlantirgan A. Charnes, W. Cooper va E. Rhodeslar 1978-yilda “Ma’lumotlar muhiti tahlili” (DEA) usulini ishlab chiqib, chiziqli dasturlash asosida ko‘p kirish va ko‘p chiqish ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan qaror qabul qiluvchi birliklarning nisbiy samaradorligini baholash metodologiyasini taklif qildilar [2]. Ushbu model keyinchalik ularning bosh harflari asosida CCR modeli deb nomlandi va ishlab chiqarishning doimiy masshtabli samaradorligiga (constant returns to scale) asoslanadi.

1984-yilda R. Banker, A. Charnes va W. Cooperlar tomonidan CCR modelining rivojlantirilgan ko‘rinishi — o‘zgaruvchan masshtabli samaradorlikka (variable returns to scale) asoslangan BCC modeli taklif etildi [3]. Bu model ishlab chiqarish masshtabining o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan samaradorlik farqlarini alohida baholash imkonini berdi. W. Cooper, L. Seiford va K. Tone tomonidan tayyorlangan monografiyada DEA usulining nazariy asoslari, turli modifikatsiyalari va amaliy dasturiy vositalari batafsil yoritilgan [4]. Shuningdek, T. Coelli va uning hammualliflari tomonidan samaradorlikni tahlil qilishning parametrik va noparametrik usullari qiyosiy tarzda o‘rganilgan [5].

Keyingi yillarda DEA usuli dunyoning ko‘plab mamlakatlarida qishloq xo‘jaligi, bank tizimi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa tarmoqlarda samaradorlikni baholashda keng qo‘llanila boshlandi. Xususan, qishloq xo‘jaligi sohasida DEA usuli fermer xo‘jaliklari, agrofirmalar va hududlar kesimida resurslardan foydalanish samaradorligini taqqoslash uchun samarali vosita sifatida e’tirof etilgan.

Mahalliy adabiyotlarda ham qishloq xo‘jaligi tarmoqlari, jumladan, paxtachilik, g‘allachilik va bog‘dorchilikda resurslardan foydalanish samaradorligini baholashga bag‘ishlangan tadqiqotlar mavjud. Iqtisodiy o‘sish va samaradorlik tushunchalarining nazariy-uslubiy asoslari, jumladan, resurslardan oqilona foydalanish mezonlari iqtisodiy nazariyaga oid darsliklarda ham keng yoritilgan. Biroq Samarqand viloyati tumanlari kesimida bog‘dorchilik mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini DEA usuli asosida kompleks baholashga bag‘ishlangan tadqiqotlar yetarlicha o‘rganilmagan.

Shuningdek, ishlab chiqarish imkoniyati chegarasi va samaradorlik chegarasi tushunchalari iqtisodiy nazariyada keng qo‘llaniladi. Ishlab chiqarish funksiyasi resurslardan maksimal mahsulot olishni ta’minlovchi texnologik bog‘liqlikni ifodalasa, ko‘p turdagi mahsulot ishlab chiqarilganda samaradorlik chegarasi (efficiency frontier) tushunchasidan foydalaniladi. Amaliyotda samaradorlik chegarasini analitik yo‘l bilan aniqlash deyarli imkonsiz bo‘lganligi sababli, uni baholashda DEA kabi noparametrik usullardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi “Ma’lumotlar muhiti tahlili” (DEA) usulining CCR modeliga asoslanadi. DEA usulining mohiyati shundan iboratki, \(n\) ta qaror qabul qiluvchi birlik (QQB) mavjud bo‘lib, har bir birlik \(m\) ta kirish (xarajat) va \(s\) ta chiqish (natija) ko‘rsatkichiga ega. Bunda obyekt sifatida viloyat, tuman, xo‘jalik tarmog‘i, korxona yoki ta’lim muassasasi kabi bir xil turdagi birliklar qaralishi mumkin.

- obyekt uchun kirish va chiqish ko‘rsatkichlari mos ravishda ustun-vektor va ko‘rinishida ifodalanadi. Barcha N ta obyektning kirish ko‘rsatkichlari o‘lchamli matritsani, chiqish ko‘rsatkichlari esa o‘lchamli matritsani tashkil etadi. Matematik dasturlash masalasining ikki yoqlama simpleks usuli nazariyasidan foydalanib, DEA modelini quyidagi umumiy shaklda ifodalash mumkin:

$$\begin{aligned} &\min_{\theta,\lambda}(\theta), \\ &-y_i + Y\lambda \geq 0, \\ &\theta x_i - X\lambda \geq 0, \\ &\lambda \geq 0, \end{aligned} \qquad (1)$$

bu yerda - skalyar miqdor, - N×1 o‘lchamli vektor. miqdori masala yechilgandan so‘ng aniqlanadi va u -obyektning samaradorlik ko‘rsatkichi hisoblanadi. Samaradorlik ko‘rsatkichi samaradorlik chegarasida joylashgan obyektlar uchun 1 ga teng bo‘ladi. Natijada samaradorlik chegarasi chiziqli bo‘laklash natijasida vujudga keladi; boshqa barcha obyektlarga mos keluvchi nuqtalar bu chegaradan past, ya’ni 1 dan kichik qiymatga ega bo‘ladi. Agar bo‘lsa, obyekt nosamarali hisoblanadi va uning kirish ko‘rsatkichlarini chiqish darajasini o‘zgartirmagan holda nisbatda proporsional ravishda qisqartirish mumkinligini bildiradi. Berilgan obyektga mos nuqta samaradorlik chegarasiga qanchalik yaqin joylashsa, uning samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi.

CCR modeli ishlab chiqarishning doimiy masshtabli samaradorligiga (constant returns to scale) asoslanadi va kirishga yo‘naltirilgan (input-oriented) shaklda qo‘llaniladi. Berilgan va ma’lumotlar asosida har bir QQB uchun maksimal samaradorlik darajasi aniqlanadi. Modelni yechish jarayonida QQBlarning o‘zgaruvchi qiymatlaridan xarajatlar vazni va daromadlar vazni topiladi. Bu vaznlar 1 dan gacha, ya’ni optimal qiymatlargacha o‘zgaradi. Cheklovchi shart virtual daromadlar va virtual xarajatlar nisbatini ifodalaydi va bu nisbat 1 dan katta bo‘lishi mumkin emas.

Tadqiqotda Samarqand viloyatining 14 ta tumanida 2025-yilgi meva yetishtirish ko‘rsatkichlari asosida DEA-CCR modeli kirishga yo‘naltirilgan (input-oriented) ko‘rinishda qo‘llanildi. Kirish ko‘rsatkichlari sifatida quyidagi sakkizta xarajat moddasi tanlab olindi: 1) ish haqi ajratmalari bilan, mln. so‘m; 2) jami mineral o‘g‘it, mln. so‘m; 3) zararkunandalarga qarshi kurash xarajatlari, mln. so‘m; 4) mexanizatsiya xizmati, mln. so‘m; 5) yoqilg‘i-moylash materiallari, mln. so‘m; 6) SIU (sug‘orish-irrigatsiya xizmati) xarajatlari, mln. so‘m; 7) elektr energiyasi, mln. so‘m; 8) boshqa xarajatlar, mln. so‘m.

Chiqish ko‘rsatkichi sifatida ikkita natija ko‘rsatkichi olindi: yalpi hosil (tonna) va foyda (mln. so‘m). Ushbu ko‘rsatkichlarning tanlanishi bog‘dorchilik mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonining asosiy xarajat va natija bog‘liqligini to‘liq aks ettirishga xizmat qiladi. Dastlabki ma’lumotlar sifatida 2025-yilda Samarqand viloyatining 14 ta tumanida meva ishlab chiqarish bo‘yicha rasmiy statistik ko‘rsatkichlardan foydalanildi.

Hisoblashlar natijasida har bir tuman uchun samaradorlik ko‘rsatkichi aniqlanib, 1 ga teng bo‘lgan tumanlar samaradorlik chegarasida joylashgan samarali tumanlar, 1 dan kichik bo‘lgan tumanlar esa samarasiz tumanlar sifatida guruhlanadi. Samarasiz tumanlar uchun mos yozuvlar tumanlari hamda ularning tortish koeffitsiyentlari, shuningdek, har bir kirish ko‘rsatkichi bo‘yicha tavsiya etilgan optimal qiymatlar hisoblab chiqiladi. Bu esa samarasiz tumanlarni samarali tumanlar tajribasiga tayangan holda amaliy tavsiyalar bilan ta’minlash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Samarqand viloyatining bog‘dorchilik mahsulotlari yetishtirish xarajatlari tarkibida so‘nggi yillarda sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi. Xususan, meva yetishtirishga sarflangan ish haqi ajratmalari 4,1 foizga kamaygan, shu bilan birga, zararkunandalarga qarshi kurashish, yoqilg‘i-moylash materiallari, mineral o‘g‘it, mexanizatsiya xizmatlari hamda yagona yer solig‘i uchun xarajatlar ulushi oshgan bo‘lsa, elektr energiyasi va boshqa xarajatlar ulushida pasayish kuzatildi. Bu o‘zgarishlar ishlab chiqarish jarayonida texnika va texnologik resurslardan foydalanish intensivligining ortib borayotganidan dalolat beradi.

DEA-CCR modeli asosida o‘tkazilgan hisob-kitoblar natijasida Samarqand viloyatining 14 ta tumanidan 9 tasi — Bulung‘ur, Ishtixon, Kattaqo‘rg‘on, Qo‘shrabot, Oqdaryo, Paxtachi, Samarqand, Tayloq va Urgut tumanlari samaradorlik ko‘rsatkichi bo‘yicha 1 ga teng bo‘lib, samaradorlik chegarasida joylashdi va samarali tumanlar guruhini tashkil etdi. Qolgan beshta tuman — Jomboy (0,988629), Pastdarg‘om (0,980646), Narpay (0,969544), Payariq (0,941584) va Nurobod (0,806166) tumanlari nosamarali tumanlar sifatida aniqlandi (1-jadval).

1-jadval. Samaradorlik ko‘rsatkichining qiymati bo‘yicha saralangan tumanlar[1]

O‘rin	Tuman	Samaradorlik ko‘rsatkichi
1	Bulung‘ur	1
1	Ishtixon	1
1	Kattaqo‘rg‘on	1
1	Qo‘shrabot	1
1	Oqdaryo	1
1	Paxtachi	1
1	Samarqand	1
1	Tayloq	1
1	Urgut	1
2	Jomboy	0,988629
3	Pastdarg‘om	0,980646
4	Narpay	0,969544
5	Payariq	0,941584
6	Nurobod	0,806166

Samaradorlik ko‘rsatkichining o‘rtacha qiymati 0,977612 ni, minimal qiymati esa 0,806166 ni tashkil etdi. Standart og‘ish 0,17145 ga teng bo‘lib, bu tumanlar guruhining resurslardan foydalanish darajasi jihatidan nisbatan bir xil ekanligidan dalolat beradi. Eng past samaradorlik ko‘rsatkichi Nurobod tumanida qayd etildi, bu esa ushbu tumanda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha ustuvor chora-tadbirlar zarurligini ko‘rsatadi.

Samarasiz tumanlar uchun DEA modeli har bir tuman bo‘yicha mos yozuvlar tumanlarini, ya’ni resurslardan foydalanish tarkibi bo‘yicha eng yaqin bo‘lgan samarali tumanlarni hamda ularning tortish koeffitsiyentlarini aniqlaydi. Masalan, Narpay tumani uchun mos yozuvlar to‘plami Ishtixon (tortish koeffitsiyenti 0,932501) va Kattaqo‘rg‘on (0,180650) tumanlaridan iborat bo‘lib, Ishtixon tumanining tortish koeffitsiyenti Kattaqo‘rg‘onnikidan yuqori bo‘lganligi sababli, Narpay tumani ko‘rsatkichlari tuzilishi Ishtixon tumaniga yaqinroq ekanligini bildiradi.

DEA usulining muhim afzalliklaridan biri shundaki, u samarasiz obyektlar uchun har bir kirish ko‘rsatkichi bo‘yicha tavsiya etilgan optimal qiymatlarni shakllantirish imkonini beradi. Bunda samaradorlik ko‘rsatkichi birdan kichik bo‘lgan tumanlar o‘zlarining chiqish ko‘rsatkichlarini saqlagan holda, kirish ko‘rsatkichlarini qanday darajaga qisqartirishi lozimligi aniqlanadi. Agar samarasiz tumanlar ko‘rsatkichlarning tavsiya etilgan qiymatlariga erishsa, ular samaradorlik chegarasiga chiqqan bo‘lar edi.

Narpay va Payariq tumanlari misolida tavsiya etilgan qiymatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Narpay tumanida yalpi hosil va foyda ko‘rsatkichlari o‘zgarishsiz qolgan holda, ish haqi ajratmalari bo‘yicha xarajatlarni 603,7 mln. so‘mga (7,9 foizga), jami mineral o‘g‘it xarajatlarini 67,7 mln. so‘mga (11,9 foizga), zararkunandalarga qarshi kurash xarajatlarini 33,6 mln. so‘mga (7,6 foizga), mexanizatsiya xizmati xarajatlarini 78,7 mln. so‘mga (17,8 foizga), yoqilg‘i-moylash materiallari xarajatlarini 57,5 mln. so‘mga (12,0 foizga) qisqartirish tavsiya etiladi.

Payariq tumani bo‘yicha esa yalpi hosil va foyda ko‘rsatkichlarini saqlagan holda, ish haqi ajratmalari xarajatlarini 1960,0 mln. so‘mga (11,4 foizga), mexanizatsiya xizmati xarajatlarini 550,5 mln. so‘mga (38,3 foizga), yoqilg‘i-moylash materiallari xarajatlarini 493,2 mln. so‘mga (31,7 foizga), elektr energiyasi xarajatlarini esa 48,2 mln. so‘mga qisqartirish imkoniyati mavjudligi aniqlandi.

Umumiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, samarasiz tumanlarda ish haqi ajratmalari, mineral o‘g‘it, zararkunandalarga qarshi kurash, mexanizatsiya xizmatlari, yoqilg‘i-moylash materiallari, SIU xarajatlari, elektr energiyasi va boshqa xarajatlar bo‘yicha ham optimaldan ortiq sarflanganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, Nurobod tumani bo‘yicha tahlil natijalariga ko‘ra, mineral o‘g‘it uchun ajratilgan mablag‘ optimaldan 691 mln. so‘mga (32,5 foizga), elektr energiyasi uchun esa 28,0 mln. so‘mga (60,7 foizga) kam ajratilganligi aniqlandi, bu esa ushbu tumanda ba’zi resurslardan yetarli darajada foydalanilmayotganini ko‘rsatadi. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, nosamarali tumanlarda muammo faqat xarajatlarning umumiy miqdorida emas, balki ularning tarkibiy taqsimotida ham namoyon bo‘lmoqda.

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, bog‘dorchilik mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish nafaqat xarajatlarni umumiy kamaytirish, balki ularning tarkibini optimallashtirish, ya’ni ayrim resurslardan ortiqcha, ayrimlaridan esa yetarlicha foydalanmaslik holatlarini bartaraf etish hisobiga ham amalga oshirilishi mumkin. Bu esa DEA usulining nafaqat samaradorlikni baholash, balki resurslarni boshqarish bo‘yicha aniq amaliy yo‘nalishlarni belgilashda ham muhim analitik vosita ekanligini ko‘rsatadi.

1 Manba: Muallif ishlanmasi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, DEA usulining CCR modeli bog‘dorchilik mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini hududiy kesimda baholashning samarali va ishonchli vositasi hisoblanadi hamda ushbu usul yordamida viloyatning 14 ta tumanidan 9 tasi samarali, 5 tasi esa samarasiz ekanligi aniqlandi.

Ikkinchidan, tumanlar o‘rtasidagi samaradorlik ko‘rsatkichlarining nisbatan yuqori o‘rtacha qiymati (0,9776) va past standart og‘ishi viloyat tumanlari o‘rtasida resurslardan foydalanish darajasi jihatidan katta tafovut yo‘qligini, biroq ayrim tumanlarda zaxiralar mavjudligini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, samarasiz tumanlarda asosiy muammo ish haqi ajratmalari, mexanizatsiya xizmatlari va yoqilg‘i-moylash materiallari bo‘yicha xarajatlarning nisbatan yuqoriligi bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi. Bu esa mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, texnika va texnologiyalarni yangilash hamda resurs tejamkor usullarni joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- samarasiz tumanlarda bog‘dorchilik xo‘jaliklarida mehnatni tashkil etish va ish haqi fondidan foydalanishni tahlil qilish, ortiqcha xarajatlarni asoslash yoki qisqartirish choralarini ko‘rish;
- mexanizatsiya xizmatlari va yoqilg‘i-moylash materiallaridan foydalanishda resurs tejamkor texnologiyalarni, jumladan, tomchilatib sug‘orish va zamonaviy agrotexnika vositalarini joriy etishni kengaytirish;
- samarali tumanlar tajribasini nosamarali tumanlarga tarqatish, ularning resurslardan foydalanish tarkibini o‘rganish va mos amaliyotlarni joriy etish;
- viloyat va tuman miqyosida bog‘dorchilik mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini muntazam monitoring qilish tizimini joriy etish, buning uchun DEA kabi zamonaviy iqtisodiy-matematik usullardan muntazam foydalanish;
- bog‘dorchilik mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatini tartibga soluvchi va yakuniy natijalarga yo‘naltirilgan resurslardan oqilona foydalanishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha viloyat va tuman darajasidagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Xulosa qilib aytganda, DEA usuli yordamida o‘tkazilgan tahlil bog‘dorchilik tarmog‘ida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha aniq va ilmiy asoslangan yo‘nalishlarni belgilash imkonini berdi. Ushbu natijalar viloyat va tuman darajasidagi qishloq xo‘jaligi boshqaruv organlari, shuningdek, bog‘dorchilik xo‘jaliklari rahbarlari uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, kelgusida bog‘dorchilik mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Farrell M.J. The Measurement of Productive Efficiency // Journal of the Royal Statistical Society. Series A (General). - 1957. - Vol. 120, No. 3. - P. 253-290.
2. Charnes A., Cooper W.W., Rhodes E. Measuring the efficiency of decision making units // European Journal of Operational Research. - 1978. - Vol. 2, No. 6. - P. 429-444.
3. Banker R.D., Charnes A., Cooper W.W. Some Models for Estimating Technical and Scale Inefficiencies in Data Envelopment Analysis // Management Science. - 1984. - Vol. 30, No. 9. - P. 1078-1092.
4. Cooper W.W., Seiford L.M., Tone K. Data Envelopment Analysis: A Comprehensive Text with Models, Applications, References and DEA-Solver Software. - 2nd ed. - New York: Springer, 2007. - 490 p.
5. Coelli T.J., Rao D.S.P., O‘Donnell C.J., Battese G.E. An Introduction to Efficiency and Productivity Analysis. - 2nd ed. - New York: Springer, 2005. - 349 p.
6. Emrouznejad A., Yang G. A survey and analysis of the first 40 years of scholarly literature in DEA: 1978-2016 // Socio-Economic Planning Sciences. - 2018. - Vol. 61. - P. 4-8.
7. Fried H.O., Lovell C.A.K., Schmidt S.S. The Measurement of Productive Efficiency and Productivity Growth. - New York: Oxford University Press, 2008. - 656 p.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

2026. VI maxsus son

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz










SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
"INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI" MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
2026-yil 25-26-sentabr



